

## **XALQ PEDAGOGIKASIDA OILA TARBIYASI MUAMMOLARINING QO'YILISHI VA HAL ETILISHI XUSUSIYATLARI**

*Yulchiboeva Dilfuza Ergashevna*

*QDPI Amaliy psixologiya kafedrasи o'qituvchisi*

*Sodiqova Oyshaxon*

*Amaliy psixologiya 2 bosqich talabasi*

O'zbek oilasida bola tarbiyasi haqida gapirganda, keyingi avlodlarga boy meros qoldirgan O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlarini eslash muhimdir. Ular hozirgi kunlarimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan tarbiya, shaxsni kamol toptirish, oilada bolani tarbiyalashning yo'llari haqida qimmatli fikrlarni bayon etganlar.

Oilada bola tarbiyasi to'g'risida Alisher Navoiyning ajoyib fikrlari bor. Navoiyning fikriga ko'ra, eng muhimi bolalarni sevish, "Bolaga, degan edi ulug' shoir, - kichikligidan boshlab yoshini hisobga olgan holda axloqiy tarbiya bermoq zarur". Taniqli shoir va pedagog Abdulla Avloniy oilada bolalar tarbiyasi to'g'risida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ajoyib fikrlarni bayon qilgan. O'zining "Yashnagan o'lka va axloq" degan kitobida yozganidek, bolaning sog'lig'i va baxti avvalo uning yaxshi tarbiyalanishiga, badanining tozaligiga, e'tiqod hosil qilishiga, yaxshi xulqqa ega bo'lishiga, uni g'ayriaxloqiy hatti-harakatlardan ogohlantirilishiga bog'liq. Bolani tarbiyalashni tug'ilgan kundanoq boshlash zarurligi quyoshday ravshan va aniq, uning organizmini mustahkamlash, aqliy qobiliyatini donishmandlik nuri bilan yoritish, uni axloqiy kamol toptirish, xotirasini mashqlantirish kerak.

Istiqlol va ozodlik uchun kurashgan jadid ziyolilaridan biri, shoir alloma Abdurauf Fitrat ham jamiyat rivoji va millat taqdirini oila taqdiri bilan, ularning mustahkam va farovon bo'lishi bilan bog'liqligini o'z asarlarida qayta-qayta

ta'kidlaydi. “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabatlari kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham muncha kuchli va muazzam bo'ladi», – deb yozadi Fitrat.

Abdurauf Fitrat SHarq va G'arb olimlarining asarlarini o'rganib, 1914 yilda “Oila yoki oila boshqarish tartibi” nomli oila masalasidagi mukammal yo'riqnomani yaratadiki, u hozirgi kunimiz uchun ham o'ta dolzarb va ahmiyatlidir.

Abdurauf Fitratning oila va oilaviy munosabatlarga oid ayrim fikrlarinigina keltirdik. Uning farzand tarbiyasi to'g'risidagi fikrlari hozirgi kunimiz uchun ham dolzarb bo'lib, ularning barcha ijobiy va ibratli tomonlarini hayotimizda qo'llashimiz mumkin.

“Tarbiya ikki negizga – axloq va oqillikka tayanmog'i lozim. Birinchisi yaxshi fazilatni o'stirsa, ikkinchisi o'zgalar illatidan himoya qiladi. Demak, tarbiya ham axloqqa, ham insoniy munosabatlarga asrlar osha xalq tajribasida sinovdan o'tib, o'zining umrboqiyligini isbotlagan qadriyatlarga, an'ana va urfatatlarga bog'lansagina kuzatilgan natijaga olib keladi”.

Sog'lom avlod deganda, biz ham jismoniy, ham ma'naviy tomondan yetuk, bardam, har ishga qodir, ilg'or madaniyatli kishilarni ko'zda tutamiz. SHunday noyob fazilatlarga ega avlodni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan xalq kelajakka ochiq ko'z, yorug' yuz, katta ishonch bilan qaraydi.

Ota-onalar bolalarining kelajagini o'ylab, ularni ilk yoshlaridan mehnatga solib chiniqtirib boradilar. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli ham shu mehnatdir. Ota-onalar bolalarining mehnatiga hamma vaqt ham muhtoj bo'lavermaydilar, lekin bolani yoshligidan ishga o'rgatish, mehnatga ko'niktirish zimmalaridagi burch ekanligidan shunday yo'l tutadilar.

Oilada bolani tozalikka, tartiblilikka, go'zalikni sevishga o'rgatish kerak. Buning uchun avvalo uydagi barcha buyumlar did bilan tanlab, joylashtirilgan,

toza, saranjom-sarishta bo'lgani ma'qul. CHunki bolaga ikki xil narsa ko'proq ta'sir qiladi. Birinchisi bolaning ko'ziga tez-tez tashlanadigan buyumlar, odamlar o'rtasidagi munosabat bo'lsa, ikkinchisi bolaning o'ziga bevosita tegishli bo'lgan narsalar kiyim-kechak, idish-tovoqlar, kitoblar, o'yinchoqlar, yozuv stoliva boshqalardir. Bola o'z buyumlarini asrab, avaylab, toza-ozoda, saranjom-sarishta qilib yurishga o'rgansa, u yoshi ulg'aygan sayin go'zallikning murakkab ko'rinishlarini, tabiatdagi uyg'unlikni, san'atdagi go'zallikni payqab olish uchun tayyorlana boradi.

Komil insonni shakllantirishda mактабда, oilada, sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. CHunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi.

Ota-onalar o'z farzandlarini komil insonlar qilib tarbiyalashi, ularda Vatanga muhabbat, mehnati va fidoyiligi bilan o'zgalarga foyda keltirish sadoqat, samimiylit kabi xislatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Farzandlarimizning bunday insonlar bo'lishida oilaning totuvligi, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbatni ham samarali ta'sir etadi.

Ota-onsa bolaga beriladigan ekologik ta'lim va tarbiya mazmuni bilan turli kanallar orqali ma'lumot oladi. Birining olgan ma'lumotlari boyroq, biriniki esa kambag'alroq bo'ladi. SHunga ko'ra ham oilaning ekologik muammolardan atroflicha boxabar bo'lib turishi, o'z vaqtida maqbul tarbiyaviy chora-tadbirlarni amalga oshirish sari undovchi muhim va qudratli omil sanaladi. Ota-onalarning bolalarda atrof muhitga ma'suliyatli munosabatni namoyon etish borasida ibrat bo'lishlari lozim.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyat: Universitetlar va pedagogika institutlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. - T.: “Universitet”, 1999. – 96b.
2. Sultonova N. A., Yuldasheva M. E., Urinbaev N. N. U. Sovremenныу urok v sisteme traditsionnogo obucheniya i ix razvivayushchie voymojnosti //Molodejъ i XXI vek-2015. – 2015. – S. 359-362.
3. Asqarova O'. Pedagogika.– T.: “Talqin”. 2008 yil, 186 – bet.
4. Abdujalilova SH. Abdurauf Fitratning oila va o'smir tarbiyasiga oid qarashlari. –T.: “O'zbekiston”, 2002 yil, 56 – bet.
5. Grebennikov I.V. Pedagogicheskiy vseobuch roditeley. – M.: 1986 yil.
6. Zunnunov SH. Tarj. Donishmandlar tarbiya xususida.–T.: “O'qituvchi”, 1982 yil, 129 – bet.